

**BOLALAR VA O`SMIRLARNING PARAZITAR KASALLIKLAR BILAN
KASALLANISHINI O`RGANISHDA O`ZBEKISTONLIK VA XORIJIY
OLIMLARNING QARASHLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19221953>

Yusupova O.B., Bekturdiyeva M.O.

Urganch davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya

Ushbu maqola Maktabgacha yoshdagi bolalar va o`smirlarda uchraydigan parazitlar kasalliklar turlari parazitlar kasalliklar natijasida organizmda ro`y beradigan o`zgarishlarni o`rganilganlik hihtlarini ochib beradi. Shuningdek, shahar va qishloqlarda yashovchi aholi o`rtasida parazitlar kasalliklarning tarqalganlik darajasini ochib beradi.

Kalit so`zlar

Parazitlar kasalliklar, uyushgan va uyushmagan bolalar, shahar va qishloq.

**VIEWS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS ON THE STUDY OF
PARASITIC DISEASES IN CHILDREN AND ADOLESCENTS.**

Yusupova O.B

Bekhturdiyeva M.O

Urgench state medical institute

Abstract

This article describes the types of parasitic diseases that occur in preschool children and adolescents, the ways in which changes occur in the body as a result of parasitic diseases, and prevalence of parasitic diseases among population living in urban and rural areas.

Keywords

Parasitic diseases, organized and unorganized children, urban and rural areas.

**МНЕНИЯ УЗБЕКСКИХ И ЗАРУБЕЖНЫХ УЧЕБНЫХ ОБ ИЗУЧЕНИИ
ПАЗИТАРНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ДЕТЕЙ И ОПДРОСТКОВ.**

Юсупова О.Б., Бектурдиева М.О.

Ургенский государственный медицинский институт

Аннотация

В данной статье описываются виды паразитарных заболеваний, встречающихся у детей дошкольного и подросткового возраста, механизмы изменений в организме, происходящих в результате паразитарных заболеваний, а также распространенность паразитарных заболеваний среди населения, проживающего в городских и сельских районах.

Ключевые слова

паразитарные заболевания, организованные и неорганизованные детские группы, городская и сельская местность.

Bugungi kunda parazitlar kasalliklarining tarqalishi butun insoniyat uchun dolzarb muammodir. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda ikki milliarddan ortiq odam ichak parazitlari bilan bog'liq kasalliklardan aziyat chekmoqda. Turli mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, parazitlar kasalliklarining bolalik va o'smirlik davrida tarqalganligi ahamiyatli miqdorni tashkil qiladi-0.6% dan 18.5% gacha. So'ngi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalar orasida PK (parazitlar kasalliklarining) o'sib borayotganligi, parazitlar kasalliklarni aniqlashda qo'llaniladigan metodlarni takomillashtirilishi va ommaviy parazitlar kasalliklarga tekshirishni yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq deb qaraladi. Bularning barchasi bolalarda PK ni o'z vaqtida tashxislash, samarali davo va profilaktika chora tadbirlarini olib borishni o'ta muhim ekanligini bildiradi. Shu sababdan, adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, parazitlar kasalliklar natijasida yuzaga keladigan kamqonlik hamda D vitamini yetishmovchiligining o'zaro bog'liqligini o'rganish ushbu ilmiy maqolaning asosi bo'lib xizmat qiladi.

2019 yilda Professorlar Chia-Kwung Fan, Ting-Vu Chuang, Ying-Chieh Huang va b. lar tomonidan Taypey tibbiyot universiteti va tibbiyot kollejida Marshall orollaridagi maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchi orasidan jami 392 ta bola parazitlar kasalliklarga tekshirilganda 22.4 % bolada enterabioz kasalligi aniqlangan bo'lib, o'g'il bolalar orasida kasallanish ko'rsatkichi (24.5%) qizlarga (20.31%) yuqoriqoq ekanligi aniqlangan. O'tkazgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida PKK (17.95%)ni tashkil qilgan bo'lsa, 5 yoshdan katta bolalar orasida (32.77%) ni tashkil qilgan. E'tiborli jihati shundaki, shaharda yashovchi aholi orasida PKK (22.95%) ni, qishloq aholisining (20.69%) ni tashkil qilishi aniqlangan. Ota onalarning ish bilan bandligi va enterabioz kasalligi tarqalish darajasi orasida hech qanday bog'lanish yo'q ($p>0.05$) deya baholangan.

Jahon ilmiy adabiyotlarida turli parazitlar kasalliklar natijasida D vitamini yetishmovchiligi, shuningdek turli gipovitaminoz kasalliklari hamda uzoq vaqt davomida surunkali kasallanish natijasida yuzaga keladigan anemiyalar haqidagi ma'lumotlar ko'payib bormoqda. Gelmintozlarga uchragan katta odam va yosh bolalarda har bir gelmintozga xos yuzaga chiqqan klinik alomatlar bo'lmashligi ularning tashxisini qiyinlashtiradi. Laboratoriya tekshiruvlaridan keyingina aniq tashxis qo'yish mumkin. Gelmintlarning almashinuv maxsulotlari bemor organizmini sensibilizatsiya qiladi. Sensibilizatsiya yoki allergiya holati gelmintlarning almashinuv maxsulotlari yoki parchalanishi maxsulotlarining qayta tushishiga shiddatli reaksiyalar -eshakem toshishi, yo'talish bilan nafas qisib, bronxial astma tipidagi hurujlarga borib yetishi, ich ketish va boshqa belgilar bilan namoyon bo'ladi. (T.A.Abdiyev Samarqand 2015).

Shuningdek, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida o'tkazilgan o'rganish taxlillari shuni ko'rsatadiki, 2018-2020 yillarda Buxoro viloyatida parazitlar kasalliklar ko'rsatkichini o'rganish maqsadida jami 90 nafar bola, ulardan 60 nafari asosiy guruh, 30 nafari nazorat guruhi sifatida ajratib olingan. O'rganilgan bolalar yosh guruhlariga ko'ra 4 guruhga ajratilgan, shulardan 1-3 yoshli bolalar 12 nafarni (20%), 3-7 yoshli bolalar 16 nafar (27%), 7-11 yoshli bolalar 26 kishi (43%) ni, 11-18 yoshli bolalar 6 nafarni (13.3%) ni tashkil qilgan. Bolalarda parazitlar kasalliklar natijasida D vitamini yetishmovchiligining paydo bo'lish chastotasi o'rganildi. Tekshirilgan 1-3 yoshli 12 bolada D vitaminining normal ko'rsatkichi 0%(0), avitaminoz D 87,5% (14), gipervitaminoz D 0%(0) ekanligi aniqlandi. 3-7 yoshli 16 bolada D vitaminining normal ko'rsatkichi 12,5% (2), avitaminoz D 87,5% (14), gipervitaminoz D 0% (0) ekanligi aniqlandi. 7-11 yoshli 26 yoshli bolalarda D vitaminining normal ko'rsatkichi 19,3% (5), avitaminoz D 80,7% (21), gipervitaminoz D 0% (0). 11-18 yoshli 6 bolada D vitaminining normal ko'rsatkichi 16,7% (1), avitaminoz D 83,3% (5), gipervitaminoz D 0% (0) ekanligi aniqlandi.

Sebastian Wendt, Henning Trawinski, Stefan Schubert va b. larning (2019 y) ilmiy xulosalariga ko'ra Yevropa mamlakatlari maktabgacha va kichik maktab yoshidagi aholisining taxminan 20% ga yaqini parazitlar kasalliklar bilan kasallandi, parazitlar kasalliklar kelib chiqishida asosiy omil nazoratsiz bo'lgan fekal-oral mexanizmi hisoblanadideya ta'kidlangan. Xususan Germaniyada, 2007-2017 yillar oralig'ida parazitlar kasalliklar ko'rsatkichi 2 barobarga (12.7 % dan 23.6 % ga) oshgali va parazitlar kasalliklar ko'rsatkichining ko'tarilishi yil fasllariga bog'liqligi ya'ni oktyabr va dekabr oylarida eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. shuningdek yevropa mamlakatlarida Norvegiyada 395 nafar bola (Scotch tape test)

usulida tekshirilganda ularning (18%) da gijja tuxumlari aniqlangan. Eng yuqori ko'rsatkich 6-11 yosh oralig'ida (34%) ni, 4-10 yoshdagi bolalardan 25 nafari tekshirilganda ulardan (28.5 %) da enterabioz kasalligi qayd etilgan.

Tayvandning Hualien okrugida Yu- Chao, Jen- Xung Vang va b. tomonidan 2009-2018 yillarda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1 va 4-sinflarning jami 56197 nafar maktab yoshidagi bolalari qamrab olindi. Tana massasi indeksi va enterobioz o'rtasida salbiy korrelyatsiya kuzatildi va tadqiqot mos yozuvlar davrida enterabioz vermicularis infeksiyasining kamayishi qayd etildi. Shahar atrofida va qishloq joylarida yashovchi bolalarda enterabioz kasalligi shaharlarda yashovchi bolalarga qaraganda yuqori bo'lgan ($P < 0,001$). 2009-2018 yillarda bolalar orasida enterabioz infeksiyasining umumiy tarqalish darajasining sezilarli darajada pasayishi kuzatildi ($P < 0,001$). Shu bilan birga, ushbu davrda qishloq joylarida kasallanish darajasida aniq o'zgarish kuzatilmadi ($P = 0,953$) va u shahar va shahar atrofidagi joylardan yuqori edi. Argentinada subtropic hududda yashovchi Shahar va qishloq bolalarida enterabioz kasalligi va uning xavf omillari haqida o'rganish natijalariga ko'ra, o'rganilgan jami 470 oiladan 980 nafar bola ishtirok etdi va ulardan (29.8%) ida enterabioz kasalligi aniqlangan, o'rganilgan bolalardan mos ravishda 25,3, 30,7 va 34,2% shahar, qishloq va mahalliy qishloqlarda yashovchi bolalar saralab olingan. Ko'p darajali tahlil shuni ko'rsatdiki, E. vermicularis mavjudligi asosan individual (masalan, yosh, o'yin odatlari, oldingi e.v infeksiyasi) va uy sharoitidagi omillar (masalan, oila kattaligi, haddan tashqari ko'p sharoitlar) bilan belgilanadi. O'rganilgan jami bolalardan 504 nafari (55.02 %) ini o'g'il bolalar va 412 nafari (44.98 %) qizlar tashkil qilgan. Yosh oralig'I bo'yicha tahlil qilganda 25.55 % ini chaqaloqlar (0 yoshdan 3 yoshgacha) 28.93 I maktabgacha yoshdagi ya'ni 3 yoshdan 6 yoshgacha va 45.52 % qismi maktab yoshidagi 6 - 13 yosh oralig'idagi bolalar tashkil qilgan. E'tiborli jihati shundaki, 3-6yosh oralig'idagi jamoalardan eng yuqori kasallanish ko'rsatkichi (56.32%) qayd etilgan va bunday yuqori daraja bo'lishining asosiy sababi ushbu yosh oralig'ida bollar iflos qo'llarini yaxshilab yuvmasdan yoki umuman yuvmagan holda shuningdek meva- sabzavotlarni yuvmagan holda iste'mol qilishi deb takidlanadi. (<https://doi.org/10.1017/S0031182021001955>).

Koreya Respublikasining g'arbiy va janubiy qirg'oq orollarida (Hyejoo Shin, Bong Kwang Jung, Seung wan Ryoo va b tomonidan 2008-2019 yillar) mobaynida bolalar bog'chalari va boshlang'ich maktablarda (e.v) infeksiyasi aniqlangan, 2000 yilda turli joylarda tarqalish darajasi 0% dan 59,3% gacha ekanligi anqilangan. Maktabgacha yoshdagi bolalar ham jamiyat aholisining muhim qismi hisoblanadi, ular orasida yuqumli kasalliklarni oldi olinsa jamiyatning iqtisodiy hamda ijtimoiy

rivojida muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Bolalar orasida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik va aholi tibbiy madaniyatining yetarlicha rivojlanmaganligi hamon gijja kasalliklarining saqlanib qolayotganligida muhim ahamiyat kasb etadi. Ozarbayjonda bolalarda ichak parazitozi bilan kasallanish darajasi so'nggi 5 yil ichida barqarorligi X.N. Xalafli tomonidan (**Ozarbayjonda bolalarda ichak parazitozining etiologiyasi**) nomli maqolada 2013y bayon etilgan. Jami 871nafar gijja kasalliklari bilan kasallangan bolalarning 664 nafarida (76.2%) ida enterobios. vermiculris aniqlangan, Lambliia intestinalis yetakchilik jihatdan 2-o'rinni egallagan 98 tasida ($11,3 \pm 1,2\%$). Shuningdek, Krasnodar shahrida 2017 yilda 4186 enterobioz holati qayd etilgan bo'lib, intensiv ko'rsatkich 100 ming aholiga 458,7 ni tashkil etdi. 17yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida 2017-yilda 3505 ta enterobioz kasalligi aniqlangan bo'lib, intensiv ko'rsatkich har 100 ming aholiga 386,4 ni tashkil etadi. 2016 yilga nisbatan kasallanish darajasi 1,9 foizga oshgan. Bu aholi zichligi va migratsiya ko'p bo'lgan shaharlarda aholining haddan tashqari ko'pligi bilan izohlanadi. Ichak askaridozi kasalligi ayrim paytlarda klinik belgilarsiz kechishi ayrim paytlarda bir qancha klinik belgilarning yuzaga chiqishi bilan kechishi xususan kindik atrofiga ayniqsa kechki paylarda bo'lishi bilan ushbu kasallikni tashxislashda bir qancha qiyinchiliklar tug'dirishi laboratoriya tekshiruvi o'tkazmasdan kasallikga tashxis qo'yishni qiyinlashtirishi ta'kidlangan.(Shipkova L.N. va boshq. 2017). Ozlem Ulsan,Orcun Zorbozan va b. larning olgan ilmiy xulosalariaga ko'ra, 2008 yil yanvaridan 2017 yil dekabr oyigacha Ege universiteti tibbiyot fakulteti Parazitologiyaning diagnostika laboratoriyasiga murojaat qilgan bemorlarning najas parazitologik tekshiruvi natijalari quyidagicha baholangan: 58669 bemorning 18,3% najasida kamida bitta parazit aniqlangan. Eng tez-tez aniqlanadigan ichak paraziti Blastocystis spp. (39,8%). Chastotasi bo'yicha: (37,4 %) Cryptosporidium spp., (7,7%) Cyclospora spp., (4,6%) Enterobius ver., (3,9%) Giardia intestinalis, (2,8%) Entamoeba coli va (1,8%) Entamoeba histolytica aniqlangan. Ermakova L.A va b tomonidan Rossiya Federatsiyasining Rostov klinikasida olingan xulosalarga ko'ra 2012 yildan 2016 yilgacha bo'lgan davrda klinikaga 4332 bemor murojaat qilgan, ularning 80% dan ortig'i Rostov-Don va Rostov viloyati aholisi edi.

Parazitar invaziya bilan kasallangan bemorlarning ulushi 23,8% ni tashkil etdi. Eng ko'p qayd etilganlar: lyamblioz - 24,2%, enterobioz - 21,7%, toksokaroz - 17,3%. tashkil qilgan. Qishloq aholisining poliklinikaga kamroq tashrif buyurishiga (bemorlarning umumiy sonining 26,3 foizi) qaramay, qishloq aholisi orasida parazitar infeksiyalar ko'proq qayd etilgan. Shunday qilib, parazitlar bilan kasallangan qishloq bolalarining ulushi shaharlarda yashovchi bolalarning 16,7

foizni tashkil qilsa ,qisloq bolalari orasida 40,3 foizni tashkil etdi. Xitoyda o`tkazilgan taxlil natijalariga ko`ra, retrospektiv tekshiruv 2010-yil 1-yanvardan 2022-yil 31-iyulgacha Ruijin kasalxonasining yuqumli kasalliklar bo`limiga yotqizilgan bemorlarda jami 412 parazitlar infeksiyani ko`rib chiqilgan. Qizig`i shundaki, eozinofiliya faqat parazit bilan kasallangan bemorlarning 51,83 foizida aniqlangan. Bundan tashqari, o`tkazilgan tadqiqot natijalariga ko`ra parazitlarning superinfeksiyalari keng tarqalgan. Hozirgi kunda mavjud zamonaviy tashxislash usullariga qaramay xitoylik olimlar eozinofiliya va yuqori IgE parazitlar infeksiyani skriningni boshlash uchun ishonchli ko`rsatkichlar bo`lsa-da, yangi parazitlar diagnostika to`plamlarini ishlab chiqish zarurligini ta`kidlashadi.(Jinming Zhang¹, Jing Xu, Weiliang Tang va b.2022 y)

Xulosa. O`rganilgan adabiyotlar tahlilari shuni ko`rsatadiki, bolalar va o`smirlarda uchraydigan parazitlar kasalliklar natijasida ular organizmida bir qator o`zgarishlar yuzaga keladi. Xususan uzoq vaqt davomida parazitlar kasalliklar davolanmasa bolalarda D vit yetishmovchiligi, jismoniy rivojlanishdan orqada qolish, vit C yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan kamqonliklar rivojlanishi mumkin. Shuningdek ayrim turdagi parazitlar kasalliklar natijasida bolalarda asab tizimida ham o`zgarishlar yuzaga kelishini ta`kidlashadi. Mamlakatimizda ushbu mavzuda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar juda kam bo`lib, xususan Xorazm viloyatida bolalarning parazitlar kasalliklar bilan kasallanish darajasi va ular kelib chiqishida ijtimoiy muhitning ro`li o`rganilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Fan Chia-Kwung , Chuang Ting -Vu, Huang Ying -Chieh va b .Prevalence of enterobiasis among Preschool children in the Marshall Islands 2019 yil.
2. Abdiyev T.A Gelmintozlarning klinik va laborator tashxisi muammolari.-Samarqand .2015.
3. Wendt S,Trawinski H, Schubert S va b.epidemiology of Enterobiasis in European Children . European Journal of Parasitology-2019.
4. Yu-Chao L, Jen-Hung va b Trends in Enterobiasis vermicularis Infection and BMI among School Children in Taiwan BMC Infection Diseases-2018.
5. Rivero M.R, De Angelo C,va b Enterobius vermicularis Infection and Risk Factors in Urban and Rural Children in Argentina -2021 DOI:10.1017/S0031182021001955.

6. Khurbanova, N., Omonova, G., Alimova, M., & Komiljanova, S. (2017). The state of antioxidant system of mitochondrial fraction of the hepatocyte in early terms of ischemic stroke in white rats. *Interscience*, (12-2), 51-53.
7. Kurbanova NN others. Effect of new herbal preparations on some indicators of apoptosis in rats with acute toxic hepatitis // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. – 2020. – T. 24. – No. 08. – pp. 6999-7005.
8. Kurbanova NN et al. The effect of new plant hepatoprotectors on the level of proinflammatory cytokines in acute toxic liver damage. // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. – Vol. 24, Issue 08, 2020. – Page. 8910-8920.
9. Navruzovna KN et al. Biochemical changes in hepatocyte subcellular fractions in experimental ischemic stroke // *Bulletin of Science and Education*. – 2019. – No. 7-2 (61). – pp. 57-59. Olympus LLC.
10. Navruzovna KN et al. Generation of reactive oxygen species in the mitochondrial fraction of hepatocytes in the early stages of experimental ischemic stroke // *Bulletin of Science and Education*. – 2019. – No. 7-2 (61). – P. 60-62. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/generation-of-reactive-oxygen-species-in-the-mitochondrial-fraction-of-hepatocytes>